| | |
|---|---|
| | bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021- yil "28" avgust dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Aripov Z. – O'zbekiston davlat konservatoriyasi Musiqiy manbashunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori<br>Rustamiy S. – O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari doktori |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Rektor G.Rixsiyeva
2021 yil "28" avgust

# SHARQ MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGI
# FANNING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 230000 – Tillar

**Mutaxassislik:** 70230102 – Mumtoz filologiya (sharq tillari bo'yicha)

Toshkent – 2021

| | |
|---|---|
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. – Toshkent, 2006.<br>2. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академнашр, 2013.<br>3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: "Академнашр", 2010.<br>4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2002.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>5. Содиқов Қ. "Муҳокамату-л-луғатайн"ни ўқиб ўрганиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011.<br>6. Тарозий. Фунун ул-балоға. // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2002 йил 1-6- сонлар; 2003 йил 1-3- сонлар.<br>7. Тухлиев Б. Вопроси поэтики "Кутадгу билиг" Юсуфа Хас Хаджиба. Учебное пособие. – Ташкент, 2004.<br>8. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2007.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.turfanforschung.com<br>4. www.tonyukuk.com<br>5. www.ziyonet.uz;<br>6. www.bilim.uz |
| **7.** | O'quv dasturi "Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "27" avgust dagi "1" –sonli |

| | |
|---|---|
| | bag‘ishlangan asarlar.<br>Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi - o‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabaning muayyan bir mavzuni mustaqil ravishda bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Dasturda ko‘zda tutilgan mustaqil ta'lim mavzulari talabaning ilmiy adabiyotlar bilan ishlash malakasini va adabiy jarayonlarni ilmiy tadqiq etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.<br>Dars jarayonida mustaqil ta'limning quyidagi shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq:<br>1. O‘quv dasturiga kiritilgan ayrim mavzularni darslik, o‘quv qo‘llanma yoki qo‘shimcha nazariy kitoblar yordamida mustaqil o‘rganish. Ishning natijalarini seminarlar yoki kollokviumlarda bajarilgan referatlar, individual topshiriqlar va h.k. bo‘yicha taqdim etiladi.<br>2. Tarqatma material bo‘yicha ma'ruzaning ma'lum qismini o‘zlashtirish. Tarqatma material hajmi – har bir ma'ruza uchun 5 - 8 bet. Mazkur ishning natijalari reyting-nazorat tegishli bosqichlarida tekshiriladi.<br>3. Kutubxona fondlarida saqlanayotgan ilmiy ishlar (nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari), ilmiy–nazariy adabiyotlar, qo‘lyozma manbalardan foydalangan holda berilgan mavzuni yozma yoritib berish. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>• mumtoz asarlarni o‘rganish bo‘yicha sharqshunoslikda bor bo‘lgan turli ko‘zqarashlar, ilmiy tortishuvlar haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***<br>• adabiyotshunoslikka oid asarlarni tahlil eta bilish;<br>• adabiyotshunoslikka oid turli nazariy qarashlarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>• adabiyotshunoslikka oid asarlar bo‘yicha filologik tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;<br>• klassik asarlarni o‘qib, ulardan o‘z sohasi uchun kerakli material to‘play olishi;<br>• o‘tmishda yaratilgan ilmiy-filologik asarlardagi ilg‘or g‘oyalarni, kishilik yuksalishiga xizmat qiluvi fikrlarni uqib, ularni to‘g‘ri talqin qila olish, ular bo‘yicha ilmiy tadqiqot yarata olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• ndividual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |



| Fan/modul kodi | | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| SMA106 | | 2021-2022 | 2/3 | 4/2 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | | O‘zbek | | 4/2 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Sharq mumtoz adabiyotshunosligi | | 90 | 90 | 180 |

| | |
|---|---|
| 2. | **I. Fanning mazmuni**<br>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda o‘zbek adabiyotshunosligi tarixidagi nazariy masalalar haqida bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish.<br>Fanning vazifasi – talabalariga adabiyotshunoslikka oid asarlar, fanning yuzaga kelishi va taraqqiyoti to‘g‘risida bilim berish, adabiyotshunoslik asarlari ustida ishlash malakasini shakllantirishdan iborat.<br>**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga qauyidagi mavzullar kiradi:**<br>**Mavzu: “Sharq mumtoz adabiyotshunosligi” fanining mazmuni.**<br>“Sharq mumtoz adabiyotshunosligi” fanining maqsad va vazifasi. Fanni o‘rganishning asosiy manbalari.<br>**Mavzu: Sharqda adabiyotshunoslik ilmining yuzaga kelishi**<br>Eng eski turkiy bitiglarda qo‘llangan adabiyotshunoslik terminologiyasi, uning adabiyotshunoslik fani bilan uyg‘unligi. Qadimgi turkiy adabiyot janrlari. Qadimgi turkiy adabiyotdagi *bitig, nom bitig, šastar, šasrar bitig, kavi nom bitig* singari nasriy asarlar, *qošuq~qošuğ, taqšut, ïr~yïr, kög~küg, šlok, padak, baš~bašïq* singari she'r turlari atamalari tizimi va adabiyotshunoslikning takomil darajasi.<br>**Mavzu: Ilk o‘rta asrlarda yaratilgan adabiyotshunoslikka oid asarlar**<br>Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida adabiyotga oid fikrlar.<br>O‘rta asrlar sharq adabiyotshunosligi. O‘rta Osiyolik olimlarning aruz ilmiga qo‘shgan hissasi. Yusuf as-Sakkokiyning “Miftoh al-ulum” asari. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Qustos fi ilmi-l-aruz” asari.<br>**Mavzu: Alisher Navoiy asarlarida adabiyotshunoslik va adabiy tanqid haqidagi masalalar.**<br>“Mahbub ul-qulub”da so‘zga ehtiyotkorlik, mazmun va shakl birligi masalalari. “Nasoyim ul-muhabbat”da tasavvuf ahli, oriflarga munosabat, |

turkiy shayx, avliyolar so'zlarining o'ziga xosligiga e'tibor. Navoiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn"da turkiy adabiyot, o'z davri adabiyot ahliga qarashlari.

**Mavzu: She'rshunoslik tarixi.**

She'rga oid nazariyalar va ulardagi munozarali masalalar. Aruz ilmi va uning rivoji. She'rshunoslikka oid asarlar tahlili. Alisher Navoiyning "Mezonu-l-avzon" asari va uning adabiyotshunoslik tarixidagi o'rni. She'rshunoslikning rivojida Navoiyning xizmatlari.

Zahiriddin Muhammad Boburning aruz ilmiga bag'ishlangan asari. "Boburnoma" asarida muallifning o'z davri adabiy jarayoniga bergan bahosi. Atoulloh Husayniyning she'rshunoslik tarixidagi xizmatlari. She'rga oid nazariyalar va ulardagi munozarali masalalar.

**Mavzu: Sharq adabiyotshunosligida tazkirachilik**

Tazkirachilik. Abu Mansur Saolibiy "Yatamat ad-dahr", Muhammad Avfiy "Lubob ul-albob", Faríduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo", Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" tazkiralari. Tazkirachilik tarixida Alisher Navoiyning xizmatlari. Navoiyning "Nasoyimu-l-muhabbat" va "Majolisu-n-nafois" tazkiralari. Navoiyning o'z davri adabiy jarayoniga munosabati. Uning shoirlar va adabiyot ahllariga bergan bahosi. Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Siddiq Kitobdorning "Majma' ul-xavvos", Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro" va "Nusxai zeboi jahongir" tazkiralari.

**Mavzu: Adabiyotshunosligimiz tarixida manoqiblar**

Manoqiblar. Xondamirning "Makorim ul-axloq", Alisher Navoiy "Hamsat ul-mutaxayyirin", "Holoti Said Hasan Ardasher" va "Holoti Pahlavon Muhammad", Husayn Boyqaroning "Risolai Husayn Boyqaro" asarlarda adabiyot va adabiy tanqid haqidagi tushunchalar.

**Mavzu: Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida klassik merosni o'rganish masalalari**

Hozirgi o'zbek adabiyotshunoslarining mumtoz merosni o'rganishdagi xizmatlari. Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishdagi ilmiy va amaliy harakatlar: nashrga tayyorlash va chop etish masalalari.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda ilmi toliblar kursning muhim qirralarini amaliy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratadilar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mahmud Koshg'ariy asarlarida adabiyotga oid fikrlar
2. Yusuf Xos Hojib asarlarida adabiyotga oid fikrlar
3. Ahmad Yugnakiy asarlarida adabiyotga oid fikrlar.
4. Alisher Navoiy asarlarida adabiyotshunoslik va adabiy tanqid haqidagi



masalalar.

5. "Mahbub ul-qulub"da so'zga ehtiyotkorlik, mazmun va shakl birligi masalalari.
6. She'rshunoslik tarixi.
7. Aruz ilmi va uning rivoji.
8. Alisher Navoiyning "Mezonu-l-avzon" асари.
9. Zahiriddin Muhammad Boburning aruz ilmiga bag'ishlangan asari.
10. "Boburnoma" asarida muallifning o'z davri adabiy jarayoniga bergan bahosi.
11. She'rga oid nazariyalar va ulardagi munozarali masalalar.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

***Fan bo'yicha kurs ishi.*** O'quv rejasiga ko'ra "Sharq mumtoz adabiyotshunosligi" fani bo'yicha kurs ishi yozadilar. Mavzular keng qamrovli bo'lib, talabalarning fan doirasida olgan bilimlarini mustahkamlash, ularga magistrlik dissertatsiyalari bo'yicha bilimlarini umumlashtirishga yordam beradi. Mavzular o'quv yilining boshida kafedra majlisida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

**Kurs ishlarining namunaviy mavzulari:**

1) Sharq mumtoz adabiyotshunoslik maktablari;
2) Turkiy adabiyotda adabiyotshunoslikka oid asarlar;
3) "Fununul-balog'a" asarida she'riy san'atlarning tasniflanishi;
4) "Majolisun-nafois"da adabiyotshunoslik haqidagi muhim manba;
5) Boburning aruz she'r tizimiga doir risolasi;
6) G'azal tahlili va talqini haqida qarashlar.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek adabiyotshunosligining yuzaga kelishi. Yozma obidalarda adabiyot va so'z san'ati haqidagi fikrlar.
2. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari va ularning tahlili.
3. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotshunoslik tarixidagi xizmatlari.
4. Atoulloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarini o'qib o'rganish.
5. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida qo'llangan adabiyotshunoslikka oid atamalar tizimi.
6. O'zbek tazkirachiligi tarixi.
7. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida klassik adabiyotni o'rganishga